

Gulira'no mahallasi infratuzilmasidagi kamchiliklar va ijtimoiy soha obyektlari holati o'rganildi.



Gulira'no mahallasi infratuzilmasidagi kamchiliklar va ijtimoiy soha obyektlari holati o'rganildi.

Bugun Termiz shahar hokimi O'ktam To'rayev boshchiligida tegishli mutasaddilar «Gulira'no» mahallasida yig'ilishdi. Dastlab mahalla binosi va unda yaratilgan sharoitlar bilan tanishildi. Shundan so'ng shahar rahbari va mas'ullar mahalla ko'chalarida yurib, aholi tomorqasidagi joylarni tartibga keltirish va obodonlashtirish shuningdek, mahalladagi 26-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti hududini ham mavsumga tayyorlash va poydevorini bo'yoqlash ishlarini tashkil etish yuzasidan mas'ullarga ko'rsatmalar berdi.

Navbatdagi manzil 12-sonli umumta'lim maktabi bo'ldi. Shahar rahbari tomonidan maktab faoliyati va o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, isitish tizimi, sport zallari

hamda maydonlarining holati ko'zdan kechirdi. Maktab hududini ko'kalamzorlashtirish, hovliga kirish yo'lagi yonlariga rayhon ko'chatlarini ekish va maktabning oldi tomonida trotuar yo'lagini qurish bo'yicha tegishli mas'ullarga topshiriq berildi.

Keyingi manzilda shahar rahbari suv sporti turlariga ixtisoslashtirilgan maktab faoliyati bilan tanishdi va mas'ullarga aholi o'rtasida ommaviy sport turlarini targ'ib qilish, shuningdek, muassasada obodonlashtirish va tozalik ishlarini olib borish bo'yicha vazifalar belgilab berildi.








Image not found or type unknown

